



MAQSUD SHAYXZODA SHE'RIYATIDAGI RANG - BARANGLIK JILOSI

Razakov Bekzod Ismoil o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi fakulteti EE-12 guruhi

Annotatsiya: Maqolada Maqsud Shayxzodaning she'riyatdagi rang - baranglik jilosi, so'z qo'llash usullari va mohirona o'xshatishlardan foydalanib yaratgan o'lmas ijodiy faoliyati tarannum qilingan.

Kalit so'zlar: Qardoshlik, ohangrabolik, bobo tili, turkiy til, qarindosh tillar.

M. Shayxzoda ikki buyuk xalqning sevikli farzandi, qalami o'tkir, adabiyotning turli janrlarida barakali ijod qilgan, shoir, dramaturg, olim, tarjimon va ajoyib pedagog.

Maqsud Shayxzoda tug'ilgan makoni Ozarbayjon, ijod bulog'i O'zbekistonda ko'z ochgan va o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan adiblardandir. Bu baxt nashidasi shoirning sheri satrlarida ham o'z aksini topgan.

Maqsud Shayxzoda o'z xotiralarida sheriya uning hayotiga alifboni tanimasdan oldin kirib kelganligini va besh yoshida "Bo'ri bilan olmaxon" haqida 8-10 misradan iborat masal to'qiganligini xotiralaydi.

M. Shayxzoda serqirra ijodkor, uning ruboiylari, ballada, doston va badiiy asarlari kitobxonlar qalbida muhrlanib qolgan. Biz shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz, satrlarga jo bo'lgan ohangrabolik, chuqur ma'no, so'zlarning xalq tiliga yaqinligi, soddaligi o'quvchilar qalbidan joy olganligini tushunib yetamiz. O'zbek xalqining bobo tili turkiy til hisoblanib, tillar o'z o'rnida qarindosh tillar turkumlariga ham ajratiladi. Ozarbayjon tili ham o'zbek tiliga qarindosh til hisoblanadi. Shoir ijodi bilan oshno bo'lar ekanmiz uning she'riy satrlarida inson qalbini mehru - muhabbatga to'ldirib, larzaga soluvchi sehrli so'zlar behisob, ayniqsa qarindoshlikni ulug'lovchi satrlar insonlarni do'stona yashashga yorug' yol sari yetaklaydi. M. Shayxzodaning "Qardoshlik ruboiylari"ni o'qir ekanmiz shunday shoh satrlardan bahra olamiz.

Qardoshlik – ko'ngillar aro ko'prikdir,

Ko'zlarning soqchisi nozik kiprikdir

Tillar har turli-yu, tilmoch kerakmas,

Har tilda besh burchak yulduz-tabrikdir.

Shoir she'rlarida go'zal o'xshatishlardan mohirona foydalangan masalan: Qardoshlikni ko'priikka qiyos qiladi, ko'pri nafaqat ikki sohilni birlashtiradi



balki xalqlarni, elatlarni yo‘lini yaqin qiladi, millatlarni birlashtiradi. Tillar, millatlar turli lekin, dil yaqin qardoshlarga tilmoch, yani tarjimon kerak emas deya ta’kidlaydi shoir .

O‘zbek – turkman bir dug‘on bir tug‘ishgan

Tarix degan bir maktabda o‘qishgan

Daryolardek qadim bizning yo‘ldoshlar

G‘oyat qutlug‘ udum do‘stlik, qardoshlik

Shoir satrlaridagi o‘xshatish o‘zbek- turkman xalqining tarixi bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligi, xuddi daryolardek uzoq tarix silsilasida do‘stlik , qardoshlik iplari uzulmay kelayotganligini mohirona tariflaydi. Shoirning she‘rlarini o‘qir ekanmiz xotiramizda tarix jonlanadi.

Shoir o‘z umrining bir daqiqasini ham xalqqa xizmat qilishdan forig‘ holda tasavvur etmagan.

O‘zbek she‘riyatida M.Shayxzoda G‘afur G‘ulomdan keyin, to‘g‘rirog‘i, u bilan yonma-yon turib mustamlaka zamonida qo‘rqmasdan, she‘rlarida “o‘zbek” so‘zini ulug‘ bir iftixor ila eng ko‘p ishlatgan mard shoirdir.U qanday mavzuda yozsa ham, tag zamirida o‘zbekning go‘zal fazilatlarini madh etishdan to‘xtamadi. M.Shayxzoda ijodida xalq og‘zaki ijodining maqol janridan ham o‘rinli foydalangan.

O‘zbek elin to‘y qilmoqqa haqi bor ulkan,

Yetuklikka jonli guvoh uning qomati.

“Ellik yilda el o‘zgarar” deyilgan ekan,

Boq qirq yilda, shunday kuldi yurtning omadi.

M.Shayxzoda do‘stlikni yuqori baholagan adiblardan edi. Zamondoshi va maslakdoshi G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlab “G‘afurga xat” she‘rida shunday satrlarni o‘qiymiz.

G‘afur G‘ulom va o‘lim - qovushmagan gap,

Misoli qish va rayhon, dasht va buloqlar

G‘afur G‘ulom va sukut – ikki yov lashkar,

Nuqul urushayotgan dushman taraflar.

Mahorat nuqtai nazaridan shoirning she‘riy satrlarini o‘qir ekanmiz, satrlarida ohang o‘zining yuksak nuqtasiga ko‘tarilgan. Satrlardagi qarama-qarshi fikrlar do‘stining vafoti shoir qalbining jumbushga keltirganligini yuragida tug‘yon urayotgan nola xuddi mayin shamolning to‘fonga aylanganiday madh etilgan. Bu satrlarda do‘stlikning inson hayotida katta o‘ringa ega ekanligini yana bir bor his qilamiz.

M.Shayxzoda she‘riyati ummonida ma‘naviy xazina tuganmas va betakror, shoir ijodida shevaga xos so‘zlardan ham o‘rinli foydalangan.

Boquda bir cholga dedimki: - Doyi,

Ko‘ngling ko‘p donolik hikmatlar joyi,



“Qardosh” deganining nedur ma’nosi!

Shoir jumlada keltirgan Doyi so’zi diqqatimizni o’ziga tortadi. Xorazm shevasida “doyi” so’zi “tog’a” degan ma’noni anglatadi, demak, Ozarbayjon tilidagi bu so’z Xorazm shevasidagi so’z bilan bir xil ma’no anglatishi xorazm farzandi bo’lgan har bir insonning qalbida faxr tuyg’usini uyg’otadi. Shunday ekan, o’zbek va ozarbayjon xalqi bir daraxtning ildizlaridir.

Shoir ikki qardosh xalqdan chiqqan buyuklar haqida faxr tuyg’usini oshkor qiladi. O’z – o’zidan qulog’imiz ostida Navoiyning quyidagi baytlari yangraganday bo’ladi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq

Nizomiy panjasiga panja urmoq

Ha, ikki buyuk xalq azaldan bir-biri bilan ham ijodda, ham hayotda uzviy bog’liq holda yashaganligini tarix va adabiy jarayonlarda yaqqol ko’ramiz.

M. Shayxzoda o’z ijodida kitobxonlarga bu tuyg’uni his qildirib, eslatib o’tadi va kitobxonni moziy sari yetaklaydi.

Shoirning har satrida ma’naviy xazina buloqdek qaynaydi unda qardoshlik mehr-muhabbat, oqibat, qarindoshlik, quda-andalik, mehmondo’stlik yetakchilik qiladi.

Jo’r bo’lib jaranglar doim sadomiz

Qo’shnimiz, yurtdoshmiz, hatto qudamiz.

Mehmonga peshvoz chiqmoqlik odat,

Ishqni qilolmaymiz aytib ado biz

Shayxzoda she’riyatini jiddiy tahlildan o’tkazgan, yuqorida tilga olganimiz – iste’dodli adabiyotshunos I. G’afurov buni juda yaxshi ilg’ab olgan. Bu haqda u shunday deb yozadi: “Aslida esa, she’rni mana shunday bir-biri bilan olisdan bog’lanuvchi mustaqil fikriy o’choqlarga bo’lish, so’ng yaxlit bir daromatga kelishi Shayxzoda she’riyatining ayricha belgilaridandir. Shayxzoda bu usul vositasida she’rga olam manzaralarini ko’proq olib kirishni, ya’ni she’r mazmunini chuqurlashtirishni nazarda tutadi. U bir qarashda tarqoqdek ko’ringan bo’laklardan aslida hayotning butun kartinalarini yaratadi”.

Ulug’ shayx Nizomiyni yurtdoshi, tagi-zoti ganjalik Maqsud Ma’sumbek o’g’li Shayxzoda o’zbekni o’z boshida ko’targan asl o’zbek farzandi edi. Uning she’riyati ham, insoniyligi ham doimo bizga namuna bo’lib qolajak Maqsud Shayxzoda ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari qardosh xalqlar adabiyotiga qo’shilgan ulkan hissa bo’ldi. Ma’lumki, Nizomiy ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo’lgan. Maqsud Shayxzoda Nizomiyni hayoti va faoliyati haqida to’xtalar ekan, uning boy ijodiy merosi xususida alohida o’rin ajaratadi: U shunday yozadi:



"Nizomiyning merosi oliymaqom va ulugʻvordir. Nizomiyni dunyoga tanitgan narsa uning "Xamsa"sidir. Besh mustaqil dostonidan iborat boʻlgan bu monumental asar Sharqda xamsachilik janriga poydevor qoʻydi."

Maqsud Shayxzoda Sharq adabiyoti tarixi masalalariga chuqur qiziqqan. Sharq adabiyotida mavjud asarlar, ularning janr xususiyatlari, badiiyat masalalarini yetarlicha tadqiq qilgan. Oʻzbek mumtoz adabiyotining eng ilgʻor va taraqqiyparvar namoyandalaridan koʻp narsa oʻrgangan Maqsud Shayxzoda badiiy mahorat va adabiy janrlar takomillashgani koʻrinadi. U mumtoz sheʼriyatdagi mehnatsevarlik, ilm-fanga ixlos, vafo, sadoqat, mardlik va doʻstlik kabi yuksak bashariy fazilatlarni betakror badiiy usullar, masnaviy va ruboiy kabi lirik janrlarni oʻrganib, ularni oʻz ijodiy ish jarayonida muvaffaqiyatli ravishda tadbiq qila boshlagan. Maqsud Shayxzoda sheʼriyatdagi lirik tur va janrlarni boyitish boraisda ham barakali ijodiy mehnat qildi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, M.Shayxzoda ikki xalq sheʼriyati choʻqqisini egallagan shoirlardandir. Oʻzbek xalqi doimo shunday ijodkori borligidan faxrlanadi. Oʻylaymizki, keyingi avlodlar ham M.Shayxzoda sheʼriyati gulshanidagi gullardan miriqib ifor oladi.

ADABIYOTLAR

1. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qoʻchqorov. "Adabiyot". Ikkinchi nashri. Toshkent - 2010. 198-b.
2. "100 mashhur olim" Toshkent – 2016. 4-b.
3. Shayxzoda. Asarlar. Ikkinchi tom, 174-bet.